

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.A.Abdualiyev	
Farg'ona vodiysi hududida uy parrandalari gelmintlarining o'rganilishi bilan bog'liq ma'lumotlar	648
M.R.Xolikulov, S.B.Xatamova	
Farg'ona shahar tabiiy yer osti buloq suvlarining gidroekologik holati.....	652
M.X.Akbarova, M.A.Davidov, Z.N.Jo'rayev	
Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan <i>Scutellaria</i> turkumi turlarining hayotiy shakllari tahlili	657
T.Rahimova, M.X.Akbarova, S.Ussonov, O.A.Turdiboyev	
Pyatayeva Anna Danilovna (1906 – 1981)	662
M.X.Akbarova, O.Turdiboyev	
<i>Scutellaria glabrata</i> (Lamiaceae) lektotipifikatsiyasi	667
M.X.Akbarova, Turdiboyev, R.Y.Ruzimatov, M.R.Xolikulov	
Xamidov G'ulom Xamidovich (1936–2024)	670
M.A.Davidov, R.E.Soibnazarov	
Bo'yoqbop drok-(<i>Genista tinctoria</i>) o'simligini ayrim bioekologik xususiyatlari	674
G.N.Shokirova	
Agrotexnik usullar samaradorligini aniqlash	677
I.P.Urinboev, F.P.Jumaboeva	
Опыление и плодоношение цветков вида липа (<i>Tilia tomentosa</i>), интродуцированного в ферганскую урбанofлору.....	682
M.A.Davidov, I.P.Urinboev	
Опыление и цветение видов липы во флоре города Ферганы.....	686
M.A.Masodiqova	
Eribidae oilasi vakillari va ularning zararkunandalik darajasi	689
M.A.Masodiqova	
Eribidae oilasi (<i>Limantria dispar</i>) turining toksonomiyasiga oid o'zgarishlar va zararkunandalik darajasi	692
V.Mahmudov, B.Y.Hamraliyev	
Shohimardonsoy havzasining noyob dorivor o'simliklari, ularni muhofaza qilish.....	695
M.Q.Asadova	
Poliploidiya va uning boshqoli o'simliklar seleksiyasidagi ahamiyati	698
M.M.Mamajonova, V.Mahmudov	
Farg'ona viloyati sharoitida dorivor <i>Cassia angustifolia</i> L o'simligining introduksiyasi va istiqbollari	701
S.M.Xaydarov, F.N.Mingboyev	
Akvakultura uchun ankistrodesmus mikrosuvo'tini Chu-13 ozuqa muhitida biomassasini orttirish	703
S.M.Xaydarov, B.E.Nishonov, F.N.Mingboyev	
Baliqchilikda muxim ahamiyatga ega bo'lgan <i>Daphnia magna</i> biomassasini oshirishda mikrofitlardan foydalanish	706
Z.A.Yusupova	
Yozyovon cho'llari davlat tabiat yodgorligi florasini	709
Z.A.Yusupova, F.B.Sayramov	
Mavrak turlarining xalq tabobatida hamda tibbiyotda qo'llanilishi.....	712
Z.A.Yusupova	
O'zbekistonda uchraydigan Lamiaceae turlarining dorivor salohiyati va bioekologik xususiyatlari	717
M.P.Yuldashova	
Farg'ona vodiysi kanallari algoflorasining taksonomik tahlili (JFMK, SHFMK, KFMK lari misolida)	721
M.K.Asadova	
Нектарозапас медпродуктивных угодий южных областей Узбекистана и некоторые теоретические основы их использования	726
V.Mahmudov, M.K.Jabbaraliyeva	
Био-экологические свойства лекарственных растений ферганской долины применяющие при заболевании бесплодия	729



UO'K: 58.58.01+58.006

**BO'YOQBOP DROK-(*GENISTA TINCTORIA*) O'SIMLIGINI AYRIM
BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI****НЕКОТОРЫЕ БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДРОКА КРАСИЛЬНОГО -
(*GENISTA TINCTORIA*)****SOME BIOECOLOGICAL FEATURES OF THE DYER'S BROOM - (*GENISTA
TINCTORIA*)****Davidov Mahmudjon Adhamovich¹**¹Farg'ona davlat universiteti biologiya fanlari nomzodi, dotsent**Soibnazarov Ruslan Ergashboyevich²**²Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti**Annotatsiya**

Hozirgi vaqtda Farg'ona viloyati iqlim sharoitida drok o'simligini boshqa joylardan keltirib shu yerda iqlimlashtirish va urug'larini olish, mahalliy o'suvchi formalarini chatishtirish orqali yuqori yashovchan navlar va formalarini yaratish ularni zamonaviy yo'llar orqali ko'paytirish va manzarali o'simlik sifatida hamda boshqa turli maqsadlarda qo'llashda o'simliklarning sitoembriologik nuqtayi nazardan generativ va vegetativ organlarning hosil bo'lishi, rivojlanish taraqqiyoti, mikrosporagenez va megosporagenez, endospermogenez va embriogenez qo'sh urug'lanish, kabi barcha tomonlarini atroflicha o'rganish ham juda muhim hisoblanadi.

Аннотация

В настоящее время в климатических условиях Ферганской области завозят растение селезня из других мест и акклиматизируют его здесь, получают его семена, создают высокожизнеспособные сорта и формы путем скрещивания местных произрастающих форм, размножают их современными методами и создают декоративные растения. Также очень важно изучить все стороны растений с цитозембриологической точки зрения, такие как формирование генеративных и вегетативных органов, ход развития, микроспорогенез и мегоспорогенез, эндоспермогенез и эмбриогенез, двойное оплодотворение, при использовании в качестве растения и для различных целей. другие цели важны.

Abstract

At present, in the climatic conditions of Fergana region, bringing the drake plant from other places and acclimatizing it here, obtaining its seeds, creating highly viable varieties and forms by crossing local growing forms, reproducing them through modern methods and creating ornamental plants. It is also very important to study all the aspects of plants from the cytoembryological point of view, such as the formation of generative and vegetative organs, developmental progress, microsporogenesis and megosporogenesis, endospermogenesis and embryogenesis, double fertilization, when used as a plant and for various other purposes. is important.

Kalit so'zlar: drok o'simligi, iqlimlashtirish, urug'larini olish, chatishtirish, navlar, zamonaviy yo'llar orqali ko'paytirish, manzarali o'simlik, sitoembriologik nuqtayi nazar, generativ va vegetativ organlar, rivojlanish taraqqiyoti, mikrosporagenez va megosporagenez, endospermogenez, embriogenez.

Ключевые слова: растение дрока, акклиматизация, получение семян, скрещивание, сорта, размножение современными путями, декоративное растение, цитозембриологическая перспектива, генеративные и вегетативные органы, прогресс развития, микроспорогенез и мегоспорогенез, эндоспермогенез, эмбриогенез.

Key words: droc plant, acclimatization, seed production, crossing, varieties, reproduction by modern methods, ornamental plant, cytoembryological perspective, generative and vegetative organs, development progress, microsporogenesis and megosporogenesis, endospermogenesis, embryogenesis.

KIRISH

Manzarali introdutsent o'simliklar hiyobon, park va bog'larning ko'rki hisoblanib, shaxar, tuman va qishloqlarda arxitektura ishlarining yashil bezagi sifatida keng foydalanilmoqda (1;4). Shunday o'simliklar qatoriga bo'yoqbop drok (*Genista tinctoria*) ham kiritishimiz mumkin. Ushbu

BIOLOGIYA

istiqbolli introdutsent o'simlik unchalik katta bo'lmagan 190-280 sm buta hisoblanib, iqlimlashtirilgan sharoitda o'ziga xos bioekologik xususiyatga ega.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODLAR

Genista tinctoria L.(bo'yoqbop drok) o'simligi fabachae oilasining Genista turkumiga mansub doimiy yashil o'simlik hisoblanib uning, Yevropa, Shimoliy Amerika, Janubiy Sharqiy Osiyoda 100 dan ortiq turlari manzarali va shifobaxsh o'simlik sifatida ekib parvarish qilinadi. Farg'ona davlat universiteti hududiga 2004-yili ilk bor ekilgan. Hozirda o'simlikning asos qismidan bir nechta poyalar hosil qilgan bo'lib, diametri 3-3,5 sm bo'yi 250-300 sm. Barglari poyada qarama-qarshi joylashgan qisqa bandli, lansetsimon uzunligi 4,5-5 sm eni 0,5-0,7 sm. Barglarning bo'g'in oraliqlari 10-12 sm, poyaning 1-2-3 tartibli shoxlari silindrsimon ko'rinishga ega.(1-rasm)

Olib borilgan 2021-2023-yillardagi fenologik kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatdiki, yig'ib olingan urug'lar ekib o'stirilganda o'simlikni o'sish rivojlanishiga ko'ra 5-6 chi yilga borib gullashi kuzatildi. 2021-yili barglarning hosil bo'lishi mart oyining 10-kuniga 2022-2023-yillari mos ravishda mart oyining 15-13 kuniga to'g'ri keldi. Poyalarning hosil bo'lishidan g'unchalash davrigacha bo'lgan muddat o'rtacha 29-39, g'unchalashdan gullashgacha bo'lgan davr 12-15 kunni tashkil qildi. Gullash boshlangandan so'ng oradan 3-4 kun o'tib, yoppasiga gullash davri kuzatildi. Yoppasiga gullash 2021-yilda 14-mayda, mos ravishda 2022-2023-yillarda 10-13-mayga to'g'ri keldi. (1-jadval).

Bo'yoqbop drok (Genista tinctoria L.) o'simligida fenologik kuzatuvlar natijasi

1-jadval

O'simlik nomi	Kuzatuv olib borilgan yillar	G'unchalash davri	Gullashning boshlanishi	Gullashdan g'unchalashgacha bo'lgan davr (kun)	Yoppasiga gullash davri	Yakuniy gullash davri	Mevalar yetilish davri	Yoppasiga mevalar yetilish davri
Bo'yoqbop drok (Genista tinctoria)	2021	20.04	02.05	12	14.05	15.06	10.08 13-08	13.10
Bo'yoqbop drok (Genista tinctoria)	2022	15.04	28.04	13	10.05	13.06	18.08	20.10
Bo'yoqbop drok (Genista tinctoria)	2023	18.04	03.05	15	13.05	11.06	13.08	15.10

Drok o'simligining gullari dukkakdoshlar oilasi o'simliklari kabi o'ziga xos morfologik tuzilishga ega bo'lib, ularning ochilishida 5 ta bosqichni kuzatish mumkin (2-rasm).

2-rasm

Gulning yashovchanligi muhitga bog'liq bo'lib, kun ochiq, havo harorati yuqori va quruq bo'lsa, gulning yopiq holdagi umri qisqaradi, aksincha havo bulutli, namlik yuqori bo'lganida esa uning umri 2-3 kunga uzayadi.

O'simlikning shingil to'pgulida gullar pastdan yuqoriga qarab ochilib boradi. Akropital tartibdagi gullarning ochilishi nafaqat alohida to'pgul uchun, balki butun bir o'simlik uchun hosligi aniqlandi. Yoppasiga gullash davrida 1 ta novdada 2 tadan 20 tagacha gullar ochilishi kuzatildi. Bir tup o'simlikda esa 450-500 tagacha gullar hosil bo'lishi kuzatildi. Gullar ertalabki soat 8⁰⁰ larda, hasharotlarning paydo bo'lishi bilan ochila boshlaydi, 22⁰⁰ga qadar davom etdi. Haroratning ko'tarilishi va havoning nisbiy namligining pasayishi gullarning ochilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. (1-rasm)

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo'yoqbop drok (*Genista tinctoria*) o'simligi Farg'ona iqlimi sharoitida bir necha yillardan beri o'sayotganligi uni yaxshi moslashganligidan, sovuqqa chidamliligidan darak beradi. 2021-yildagi Qishning qattiq sovuq bo'lishi natijasida turli tropik, subtropik o'simliklar va mevali daraxtlarning sovuqdan shikastlanishi kuzatildi.

Ammo bizning sharoitimizda o'sayotgan bo'yoqbop drok o'simligini hech qanday o'zgarishsiz vegetatsiyasini davom ettirishi kuzatildi. O'simlikning mevalash jarayoni ham pastdan yuqoriga akropetal tartibda amalga oshadi. Meva shakli dukkakdoshlarga xos bo'lib, uzunligi 5-6 sm, rangi qizg'ish, jigarrang. Pishib yetilgan meva o'simlikdan osonlikcha uzilib tushadi. (2-rasm)

2021-yilda yig'ilgan urug'lardan 100 donasi 2022-yilning mart oyida laboratoriya va tabiiy sharoitda ekilganda shu yilning o'zidayoq o'sib chiqdi va uning unuvchanligi laboratoriya sharoitida 85%, tabiiy sharoitda 60% ekanligi aniqlandi. Mart oyining o'rtalariga kelib yoppasiga unib chiqishi kuzatiladi. Tabiiy sharoitda unib chiqqan nihollar noyabr oyigacha 30-40 smgacha yetdi. Qishning sovuq kelganligi sababli 1-yillik ko'chatlarning 80% nobud bo'ldi. Nihollarning ayrimlari ildiz bo'g'izidan yana yangi novdalar hosil qilganligi va bu novdalarni hozirgi kunda buyi 30-35 smga yetganligi kuzatildi.

Urug' mahsuldorligi kurtaklar sonining 13 ta bo'lishi, pishib yetilgan urug'larning sonini 6 ta bo'lishi, 1 ta gulga nisbatan uning real urug' mahsuldorligi 43 % ni tashkil qilishi va bu urug'larni unuvchanligini yuqori ekanligi bu o'simlikni Farg'ona iqlim sharoitida urug' yordamida ko'paytirish mumkin ekanligidan dalolat beradi.

Bo'yoqbop drok (*Genista tinctoria*) o'simligi nafaqat manzarali, balki bir qancha foydali xususiyatga ham egadir. Bu o'simlik farmakologik nuqtai nazaridan gemeostazni saqlash, siydik haydovchi, terlatuvchi, tanani umumiy tetiklantiruvchi, tinchlantiruvchi, organizmdan ortiqcha xloridlarni chiqaruvchi, yurak atrofidagi og'riqlarni to'xtatuvchi xususiyatlarga ega. Yer ostki qismidan tayyorlangan damlama qon tomirlarini kengaytiruvchi kuchli antebakterial vosita hisoblanadi.

XULOSA

Xalq tabobatida ildizidan quyidagi kasalliklar: sariq kasalligi, qalqonsimon bez kasalliklari, artrit, revmatizm kabi kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Bo'yoqbop drok o'simligini Farg'ona iqlim sharoitida introdutsent o'simlik sifatida ekib ko'paytirishda vegetativ-qalamchalar yordamida, generativ - urug' yordamida ko'payishini inobatga olib, uni shahar, tuman, qishloq, hiyobonlar, oromgohlarga ekishni tavsiya etamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Губанов И. А. 793. *Genista tinctoria* L. — Дрок красильный // Иллюстрированный определитель растений Средней России : в 3 т. / И. А. Губанов, К. В. Киселёва, В. С. Новиков, В. Н. Тихомиров. — М. : Товарищество науч. изд. КМК : Ин-т технол. исслед., 2003. — Т. 2 : Покрытосеменные (двудольные: раздельнолепестные). — С. 436. — 666 с. — 3000 экз. — ISBN 5-87317-128-9.
2. Дудченко Л. Г., Козьяков А. С., Кривенко В. В. Пряно-ароматические и пряно-вкусовые растения: Справочник / Отв. ред. К. М. Сытник. — К.: Наукова думка, 1989. — 304 с. — 100 000 экз. — ISBN 5-12-000483-0.
3. Ларин И. В. Кормовые растения сенокосов и пастбищ СССР : в 3 т. / под ред. И. В. Ларина. — М. ; Л. : Сельхозгиз, 1951. — Т. 2 : Двудольные (Хлорантовые — Бобовые). — С. 545-546. — 948 с. — 10 000 экз.
4. Руднянская Е. И. Пыльценосы семейства бобовых // Пчеловодство : журнал. — 1982. — № 9. — С. 16—17.
5. Павлов Н. В. Растительное сырье Казахстана / под ред. В. Л. Комарова. — М. Л.: АН СССР, 1947. — С. 302—303. — 551 с. — 2000 экз.